Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Nazarovna Ra'yno Rustamovna, Жартай Жанибек Маатулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanova	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Rafigieva Zarina Xusanova	



Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari.....	1250
Azizova Manzura Ibragimova	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroti va ahamiyati.....	1272
Kushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Аброр Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralardan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	



SANOATDA RESURS ТЕЈАМКОРЛИГИНИ ТА'МИNLASH ОРQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH

Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li

TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Zamonaviy sanoat siyosatining asosiy tamoyillari tizimlashtirilgan. Eng yaxshi texnologiyalar (Best Available Technologies-BAT) hamda "yashil sanoat siyosati (green industrial policy)" orqali sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mexanizmlari va vositalari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, texnologiyalar, innovatsiya, yashil iqtisodiyot, sanoat siyosati, barqaror rivojlanish, resurs, ekologiya.

Abstract: This article identifies the main directions of achieving sustainable development by ensuring resource efficiency in the industry. The main principles of modern industrial policy are systematized. Mechanisms and means of ensuring resource saving in industry and achieving the goals of sustainable development through the Best Available Technologies (BAT) and "green industrial policy" are proposed.

Key words: industry, technologies, innovation, green economy, industrial policy, sustainable development, resource, ecology.

Аннотация: В данной статье определены основные направления достижения устойчивого развития путем обеспечения ресурсоэффективности в отрасли. Систематизированы основные принципы современной промышленной политики. Предложены механизмы и средства обеспечения ресурсосбережения в промышленности и достижения целей устойчивого развития наилучшие доступные технологии (Best Available Technologies-BAT) и "зеленой промышленной политики".

Ключевые слова: промышленность, технологии, инновации, зеленая экономика, промышленная политика, устойчивое развитие, ресурс, экология.

Sanoat siyosati iqtisodiy kategoriya sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar va vositalar tizimidir. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy tizimlarida o'ziga xos yondashuvlar asosida sanoat siyosatini ishlab chiqadilar va uni amalga oshirish ustuvor maqsadlar sifatida qaraladi. Mustaqillik yillarda O'zbekiston sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan islohatlar asosiy maqsadi raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, bugunga kelib barqaror rivojlanishga erishish, resurs imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda yashil iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilmoqda.

Sanoatning barqaror rivojlanishini hisobga olgan holda, korxonalarni moliyaviy qo'llab quvvatlash va ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining barqarorligini ta'minlash, resurs imkoniyatlarini kengaytirish va texnologik bazani mustahkamlash, investitsiyalarni ko'proq jalg qilish, shu jumladan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik, tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarini keng joriy etishga qaratilgan yo'nalishlar Yangi O'zbekiston sanoat sohalarida amalga oshirilayotgan barqaror rivojlanish maqsadlari sifatida qaralmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda sanoatning barqaror rivojlanishi resurslardan (masalan, moddiy va nomoddiy, minerallar, energiya, suv) oqilona foydalanishni ta'minlaydigan va salbiy ta'sirni minimallashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish orqali "Sanoat 4.0." konsepsiysi asosida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun mahalliy ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Sanoatni texnologik modernizatsiya qilish, ekologik talablarga javob beradigan usulda tashkil etish orqali texnologik jarayonlarning sifati – ularning iqtisodiy, resurs va ekologik samaradorligini oshirish sanoat siyosatining muhim yo'nalishlaridir.

Sanoat siyosatining asosiy maqsadi – yuqori texnologiyali, raqobatbardosh sanoatni shakllantirishdan iborat bo'lib, bunda davlatning qo'llab quvvatlovchi siyosati va strategiyalari yuqori ahamiyatga ega.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonida quyidagilar sanoatni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlari belgilangan, jumladan:

47-maqсад: "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish"

48-maqсад: "Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish"dir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son "sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan sanoatni rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- yagona sanoat siyosatini amalga oshirish hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida zamonaviy mexanizmlarni joriy etish;
- hududlarning tabiiy xom ashyo, mehnat resurslarini va "nisbiy ustunliklarini" inobatga olgan holda sanoatni rivojlantirishga turki beradigan yo'nalishlarni belgilash va ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;
- sanoatning bazaviy tarmoqlari, jumladan neft-gaz, energetika, kimyo, tog'-kon, mashinasozlik sanoatini rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, diversifikatsiya qilish hamda ularni isloh qilish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish;
- resurslarning tarmoqlararo va hududlar bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlanishini hamda infratuzilmaning o'zaro muvozanatlashgan rivojlanishini ta'minlash;
- tegishli vazirliklar bilan birgalikda energiya resurslari, qimmatbaho va rangli metallar, boshqa strategik resurslarni ishlab chiqarish, ularning iste'mol balansini shakllantirish va monitoring qilish hamda ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish;
- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda operatsion samaradorlikni oshirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo'llanilishi bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;
- muhim sanoat mahsulotlari bo'yicha bozor kon'yunkturasini o'rganish asosida tegishli mahsulotlar bilan ichki bozor talabini qondirish va narxlar keskin o'zgarishining oldini olish hamda sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish bo'yicha taklif va choralar ishlab chiqish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqanda, O'zbekistonda sanoat siyosatini resurs va ekologik samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish orqali barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga ahamiyat qaratilishi lozim.

O'zbekistonda sanoatni barqaror rivojlantirishning milliy maqsadlariga izchil erishish uchun o'rta va uzoq muddatli barqaror o'sishini, shu jumladan texnologik rivojlanishni jadallashtirish va iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni muvozanatini ta'minlash nuqtayi nazaridan barqarorlik tamoyillariga o'tishga zamin yaratilishi lozim. Buning uchun sanoat siyosatida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq strategik vositalar zarurdir.

Resurs samaradorligi deganda – resurs imkoniyatlardan oqilona foydalanish va xarajatlarni kamaytirishni hisobga olgan holda rejalashtirilgan natijalarga erishish qobiliyati tushuniladi. Agar mamlakatlarda boy tabiiy va mineral xomashyo manbalariga ega bo'lsada, sanoatda resurs samaradorligini ta'minlanmasa, kelajakda, resurslarga qaramlikni oshib boradi, natijada mamlakatning importga qaramligini keltirib chiqaradi¹.

Aksariyat mamlakatlarda sanoatda resurs tejamkorligiga erishning zamonaviy modellari sifatida aylanma iqtisodiyot konsepsiysi doirasida sanoat siyosati amalga oshirilmoxda². Aylanma iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish va iste'mol modeli bo'lib, u resurslardan foydalanish, chiqindilar va uglerod chiqindilarini minimallashtirishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi sifatida qaraladi. Bu mavjud resurslar va mahsulotlarni imkon qadar uzoq vaqt davomida foydalanish, qayta tiklash va qayta ishlashni o'z ichiga oladi³. Sanoatda resurs samaradorligining asosiy prinsiplari aylanma iqtisodiyot nazariyasining (Circular Economy) muhim elementi hisoblanib, u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ishlab chiqarish va iste'molning yuqori darajadagi resurs (shu jumladan energiya) samaradorligini ta'minlash;
- resurslarni tejash, yo'qotishlarni kamaytirish, ikkilamchi resurslarni (ko'pincha chiqindilar deb ataladi) iqtisodiy muomalaga jaib qilish;

1 Vorfolomeiev A. et al. Model for assessing and implementing resource-efficient strategy of industry //CEUR Workshop Proceedings. – 2020. – Т. 2713. – С. 277-294.

2 Скобелев Д. О. Политика повышения ресурсной эффективности для обеспечения устойчивого развития российской промышленности : дис. – докторская на соискание ученой степени доктора экономических наук. Апатиты, 2021.

3 <https://www.weforum.org/agenda/2022/06/what-is-the-circular-economy/>



- qayta tiklanadigan manbalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish;
- ekologik xavflarni kamaytirish.

Aylanma iqtisodiyotga o'tish jahonda 2030-yilga kelib 4,5 trillion dollarlik qiymatni ochishi mumkin⁴. Bu barqarorlik yo'lidagi muhim qadam bo'lib, xomashyo chiqindilaridan maqsadli foydalanish va resurs iste'molini imkon qadar minimallashtirish, yangi bozor istiqbollarini ochish, iste'mol barqarorligini oshirish va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradigan nazariyadir⁵.

Umuman olganda zamonaviy sanoat iqtisodiyoti nazariyalarida sanoat siyosatining beshta asosiy tamoyili mavjud bo'lib, ularni umumlashtirgan holda quydagilarga ajratish mumkin:

I tamoyil: Barqaror rivojlanishni rag'batlantirishga e'tibor qaratish. Barqaror rivojlanishning uchta komponentini hisobga olgan holda amalga oshiriladi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy. Asosiy manfaatdor tomonlar: biznes, hukumat, fan, jamiyat va boshqalar pozitsiyalarining muvozanatini ta'minlash uchun samarali asos yaratilishi.

II tamoyil. Aylanma iqtisodiyotni yaratish. Umumi tushunchada yopiq siklli iqtisodiyot resurs salohiyatini yangilashga asoslangan iqtisodiyotdir. Aylanma iqtisodiyot nafaqat birlamchi resurslardan, balki ko'pincha ishlab chiqarish chiqindilari sifatida qaraladigan ikkilamchi resurslardan ham foydalanishni o'z ichiga oladi. Yangi sanoat siyosati sharoitida ikkilamchi resurslarga talabni yaratish va rag'batlantirish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

III tamoyil. Sanoatning ishlab chiqarish va texnologik rivojlanishi (texnologik murakkablik darajasini oshirish). Bu tamoyil texnologik rivojlanish sur'atlarini jadallashtirish, ishlab chiqarishning moslashuvchanligini ta'minlash, asosiy e'tiborni yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari natijalarini joriy etish, asosiy texnologik jarayonlarni raqamlashtirish bilan bog'liq faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

IV tamoyil. Moliyaviy rag'batlantirish va moliyaviy bo'limgan motivatsiya vositalaridan muvozanatli foydalanish. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni isbotlaydi, sanoatni rag'batlantirish vositalarini ishlab chiqmasdan turib aylanma iqtisodiyotni barpo etish mumkin emas. To'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish barqaror rivojlanishning ustuvor maqsadlariga erishish nuqtayi nazaridan sanoat korxonalarini rivojlanishiga ijobjiy ta'sirga ega emas deb hisoblanadi. Shuning uchun zamonaviy sanoat siyosatida moliyaviy bo'limgan, bilvosita motivatsiya vositalaridan foydalanishga ko'proq ahamiyat qaratishni nazarda. Bunday vositalar sanoatni rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Aylanma iqtisodiyot tamoyillariga rioya qilish sanoat korxonalarining yuqori raqobatbardoshligini belgilaydigan yangi shart-sharoitlarni shakllantirish orqali ta'minlanadi.

V tamoyil. Axborotning ochiqligi va foydalanish imkoniyatini kengaytirish. Sanoatning resurs, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlardan ochiq foydalanishni ta'minlash barqaror rivojlanishning zaruriy shartidir. Bunda, sanoat siyosatining asosiy tamoyillari, maqsadlari, yo'nalishlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqishda axborotning ochiqligi va shaffofligiga erish nazarda tutiladi. Shuningdek, sanoat atrof-muhitga oid ma'lumotlari va talablarga muvofiqligini asoslovchi ma'lumotlar ochiq bo'lishi talab etiladi. So'ngi vaqtarda sanoat siyosatini amalga oshirish va sanoatda amalga oshiriladigan loyihalarning investitsion jozibadorligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki ijtimoiy va ekologik samaralarga ko'ra baholash amaliyotlari ko'plab mamlakatlarda hisobga olinmoqda⁶.

Resurs samaradorligi va sanoat tarmoqlarining tarixiy rivojlanishi doirasida tabiiy kapitaldan foydalanish texnologik rivojlanishni yangi bosqichga o'tishning eng muhim fundamental asosi sifatida qaratishi lozim.

Hozirgi vaqtida iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirishning yangi modellari faol ishlab chiqilmoqda, ular doirasida texnologik taraqqiyot tabiiy resurslarni tejash imkoniyatlarini kengaytirishning asosiy vositadir.

Sanoatning iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslarning xususiyatlariiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligini hisobga olib, asosiy e'tiborni iqtisodiyotning yangi yo'nalishlarini shakllantirishga qaratish zarur. Bunda hal etilishi lozim bo'lgan asosiy vazifa qayta tiklanadigan resurslardan foydalaniladigan sanoat ishlab chiqarishining o'sishini barqarorlashtirish, shu bilan birga ilmiy-texnika taraqqiyotini rag'batlantirishdir.

Bugungi kunda iqtisodiy samaradorlikning asosiy parametrlarini saqlab qolgan holda ishlab chiqarishning energiya va resurs zichligini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va mahsulotlarning uglerod intensivligini hamda ifloslantiruvchi moddalar va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun sanoat texnologiyalari faol rivojlanmoqda.

Umuman olganda sanoatni resusr tejamkorlikka asoslangan barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini 2 ta determinantlar asosida amalga oshirish lozim.

4 McMahon K., Uchendu C., Fitzpatrick C. Characterizing IT asset disposition flows for the circular economy: A case study on export for reuse from Ireland //Journal of Industrial Ecology. – 2023.

5 Geissdoerfer, M., Pieroni, M.P., Pigosso, D.C. and Soufani, K. (2020). "Circular business models: A review" (PDF). Journal of Cleaner Production. 277: 123741. doi:10.1016/j.jclepro.2020.123741. S2CID 225282542

6 Ren S. et al. Can mandatory environmental information disclosure achieve a win-win for a firm's environmental and economic performance? //Journal of cleaner production. – 2020. – Т. 250. – С. 119530.



Birinchi yo'naliш, mavjud bo'lgan eng yaxshi texnologiyalar (Best Available Technologiyes (BAT) yondashuvi asosida sanoat siyosatini amalga oshirish. Bu ishlab chiqarishning yuqori resurs samaradorligini, salbiy ta'sirlarning oldini olishni yoki kamaytirishni (nazorat qilishni) va umuman atrof-muhitni muhofaza qilishning ishonchli darajasini ta'minlaydigan ilg'or texnologiyalardir. Bugungi kunda BAT konwepsiyasi dunyoning ko'plab mamlakatlarida sanoat siyosatining muhim va samarali vositasi hisoblanadi.

Ikkinci yo'naliш, "yashil sanoat siyosati (green industrial policy)"ga o'tishdir. Yashil sanoat siyosatiga o'tish barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olish eng maqsadga muvofiq siyosatdir.

Yashil sanoat siyosati xalqaro miqyosda qabul qilingan BAT tamoyillari va aylanma iqtisodiyot yondashuvlari asosida iqtisodiyotning resurs talab qiluvchi tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan umumiy sanoat siyosatining gorizontal tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Yashil sanoat siyosati mamlakatning amaldagi sanoat siyosatidan tubdan farq qiluvchi yo'naliшdir. Uni amalga oshirishdan asosiy maqsad davlat iqtisodiyotini xomashyo iqtisodiyotidan (resurslar eksportiga asoslangan iqtisodiyotdan) innovatsion rivojlanish iqtisodiyotiga tizimli va samarali o'tishni ta'minlaydigan yuqori texnologiyali va raqobatbardosh sanoatni yaratishdan iboratdir. Sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, muvozanatlari va barqaror rivojlanishni ta'minlash yashil sanoat siyosatining asosiy yo'naliшlaridir.

Biroq sanoatni rivojlanishining yanada barqaror vektoriga samarali o'tishiga ko'plab omillarning ta'siri kuzatiladi. Qoida tariqasida, asosiyleri texnologik, institutsional, qonunchilik, iqtisodiy va tashkiliy omillar bo'lib, ularning xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Sanoatda resurslardan tejamkor iqtisodiyotni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar


Omillar	Xususiyati
Qonunchilik	Amaldagi me'yoriy-huquqiy tartibga solishning nomukammalligi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish masalalarining qonunchilik darajasida ishlab chiqilmagani, aniq maqsadlar belgilab berilmasligi
Institutsional omil	Barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladigan iqtisodiyotga o'tish alohida institutlar darajasida o'zgarishlarni, iqtisodiyotning ishlash shartlarini, rag'batlantirish tizimlarini, tuzilmasini o'zgartirishni talab qilishi.
Iqtisodiy omil	Resurs samaradorligini oshirish va yangi sanoat loyihalarini amalga oshirishning noaniqligi, investitsion jozibadorlikning past darajasi, resurslarni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha sanoatning imkoniyatlari mavjud emasligi.
Tashkiliy omillar	Turli tarmoqlarning barqaror rivojlanishiga o'tishning nomutanosibligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning tizimsizligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda to'siqlarning paydo bo'lishi

Iqtisodiy faoliyatning ekologik va ijtimoiy jihatlarini hisobga olmaydigan iqtisodiy rivojlanish resurs talab qiladigan yo'ldan boradi va bir qator tahdidlar yuzaga chiqarishi mumkin. Mamlakatda resurs salohiyatidan noratsional foydalanishning asosiy oqibatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- yuqori texnologiyali va bilim talab qiladigan tarmoqlarning importga qaramliligini oshiradi;
- qo'shimcha energiya va xom ashyoga bo'lgan ehtiyoj doimo ortib boradi va ta'minotdagi uzilishlar kuza-tilaveradi;
- mahalliy mahsulotlarni import qilinadigan tovar va xizmatlar bilan almashtirish tezlashib boradi;
- ilm talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlanishdan ortda qolaveradi va moddiy resurslar ko'p talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishga yuqori ustuvorlik qaratiladi;
- ekologik xavflar sezilarli darajada oshadi, ekotizimlarning beqarorligi yuzaga keladi, jumladan: suv tani-isligi, xavoda sanoat chiqindilari va zararli gazlarning ko'payib borishi, inson salomatligi va umr ko'rish darajasining qisqarishi va h.k.;
- mineral-xom ashyo bazasini takror ishlab chiqarish sur'atlarining kamayishi;
- yuqori sifatli rudalarga ega konlarni ochish ehtimoli pastligi, resurs bazasining kamayishi va h.k.

Yashil sanoat siyosati katta resurslarni, shu jumladan moliyaviy resurslarni va biznes egalarini rag'batlantirishni talab qiladigan mas'uliyatli sanoat ishlab chiqarishiga asoslangan bo'lishi kerak. Budget va budjetdan tashqari manbalar hisobidan yangi texnologiya loyihalarini amalga oshirish yoki mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun daylat tomonidan qo'llab-quvvatlash va bilvosita moliyaviy ko'maklar bo'lishi lozim. Shuningdek, biznes mas'uliyati haqidagi ma'lumotlarning ochiqligi alohida ahamiyat qaratilishi lozim.

Yuqorida fikrlarni umumlashtirgan holda mamlakatda eng yaxshi texnologiyalar konsepsiyasini joriy etish va "yashil sanoat siyosatini" amalga oshirish yo'naliшlari, mexanizmlari va vositalari 1-rasmida keltirilgan.



1-rasm: Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish yo'nalishlari, vositalari va mexanizmlari⁷

Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish siyosati milliy maqsadlarga mos bo'lishi, hududiy va tarmoqlarni rivojlanish rejali, sanoat korxonalarining strategik yo'nalishlariga mutanosib amalga oshirilishi lozim.

Taklif etilayotgan institutsional tarkibiy qismlar to'plami ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish sohasidagi strategik milliy maqsadlarga erishishga qaratilgan yondashuvlardir.

Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishishning institutsional infratuzilmaning asosiy element va muhim tartibga solish vositasi ilmiy-tadqiqot institutlari bo'lishi talab etiladi. Ilmiy tadqiqot institutlar eng yaxshi mavjud texnologiyalarga sanoatga tizimli joriy etishni ta'minlashi, sanoat tar-

7 Muallif ishlansasi



moqlarining resurslari samaradorligini oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni aniqlash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni, axborot-metodik va uslubiy tizimni shakllantirishda tashabbuskorlikni olishi lozim.

Xulosa qilganda, zamонавиyo сanoat siyosatini makro darajada shakllantirishga nazariy yondashuvlar barqaror rivojlanishga, resurslar samaradorligini oshirishga, aylanma iqtisodiyotni barpo etishga, ishlab chiqarish zanjirlarining texnologik murakkabligining hisobga olgan holda, moliyaviy rag'batlantirish vositalaridan foy-dalanadigan tamoyillarga asoslanadi. Sanoatni resurs tejamkorligiga erishishga qaratilgan harakatlarni rag'batlantirish uchun moliyaviy bo'limgan vositalar, shuningdek, raqamlı transformatsiya asosiy ustun hisoblanadi.

Tabiyi resurslarni saqlash sanoatni iqtisodiy va texnologik rivojlanishning zamонавиyo maqsadlari va tensdensiyalari doirasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining moddiy va energiya sarfini kamaytirishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega, bu xom ashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish orqali qo'shilgan qiymat yaratishga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Sanoat siyosati doirasida ilmiy-texnik rivojlanish, modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarini, shu jumladan axborot texnologiyalarini qo'llash, texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali cheklangan resurslardan maqsadsiz foydalanishni kamaytirishga erishiladi.

Mavjud bo'lgan eng yaxshi texnologiyalarga o'tish va aylanma iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan sanoat siyosati doirasida resurs samaradorligiga erishish birlamchi vosita sifatida qaralishi lozim. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishga qaratilgan sanoat siyosati to'rt dastakdan iborat bo'lishi lozim, ular: ilmiy-texnikaviy, texnik-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy tartibga solish. Mazkur dastaklarni tartibga solish asosida barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishiladi.

Sanoat siyosatining "gorizontal" tarkibiy qismi sifatida yashil sanoat siyosati muhim yo'naliшh hisoblanadi. yashil sanoat siyosatini amalga oshirish orqali resurs tejamkorligiga erishiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vorfolomeiev A. et al. Model for assessing and implementing resource-efficient strategy of industry //CEUR Workshop Proceedings. – 2020. – Т. 2713. – С. 277-294.
2. Скобелев Д. О. Политика повышения ресурсной эффективности для обеспечения устойчивого развития российской промышленности: дис. – диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Апатиты, 2021.
3. <https://www.weforum.org/agenda/2022/06/what-is-the-circular-economy/>
4. McMahon K., Uchendu C., Fitzpatrick C. Characterizing IT asset disposition flows for the circular economy: A case study on export for reuse from Ireland //Journal of Industrial Ecology. – 2023.
5. Geissdoerfer, M., Pieroni, M.P., Pigosso, D.C. and Soufani, K. (2020). "Circular business models: A review" (PDF). Journal of Cleaner Production. 277: 123741. doi:10.1016/j.jclepro.2020.123741. S2CID 225282542
6. Ren S. et al. Can mandatory environmental information disclosure achieve a win-win for a firm's environmental and economic performance? //Journal of cleaner production. – 2020. – Т. 250. – С. 119530.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

